

Date: 19th May-2026

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI
O‘RGATISHNING LINGVOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Marasulova Dono Nigmatullayevna,
TMCI, Pedagogika va psixologiya kafedrası
dotsenti, p.f.f.d. (PhD),
email: donomarasulova@gmail.com
tel: 946417554

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tillarni o‘rganish jarayonida ilk nutqiy ko‘nikmalarni idrok etish, xotirada saqlash va so‘z bilan ifoda etish kabi lingvopsixologik xususiyatlari ochib berilgan. Bu davr xorijiy tilni egallash uchun eng qulayligir, shu bois bundan samarali foydalanish kerakligi, bolalar ingliz tilidagi asosiy leksik materialni bog‘chada o‘rganib olishlari maktabga muayyan ko‘nikmalarni egallagan tarzda kelishlari haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, nutqiy ko‘nikmalar, lingvopsixologik xususiyatlari, psixik rivojlanishi, Ona tilidagi nutq, chet tilni o‘rganish.

Respublikamizda so‘nggi yillarda fan va texnologiyalar rivoji, yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi, bir necha tilni mukammal bilishini ta‘minlashning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta‘lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta‘minlash” ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan [1].

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti ta‘lim-tarbiya ishlarining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lib, bolaning ilk nutqiy ko‘nikmalari shu bosqichdan shakllana boshlaydi va bolalar ongi, tafakkuri, xarakter va qiziqishlarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Nutq orqali bolalar atrofdagi borliqni qabul qiladilar, narsa-buyum va hodisalarni ataydilar va o‘z fikrlarini bayon qilishni o‘rganadilar. Ayni vaqtda ushbu ko‘nikmalar bola ongi, tafakkurining rivojlanishiga, ularda atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan turlicha munosabatlari shakllanishiga, qiziqishlar hosil bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarga kichik yoshidan boshlab ularning ona tili bilan bir qatorda, chet tillarda so‘zlashish ko‘nikmalarining ham shakllanib borishi esa ularning kelajakda bir necha tillarda erkin so‘zlasha oladigan raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiyning quyidagi fikri fikrimizni dalillaydi: “Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyatning o‘zidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Bolani o‘tirishga majbur etsangiz tezda charchaydi; yotishga majbur etsangiz ham, xuddi shu hodisa ro‘y beradi; u ko‘p yura olmaydi; uzoq vaqt gapira, ashula ayta, o‘qiy ham olmaydi; ammo u sho‘xlik qilib kun bo‘yi harakat qiladi; faoliyatini tez- tez o‘zgartiradi, aralashtiradi, birini qo‘yib, ikkinchisi bilan



Date: 19th May-2026

shug‘ullanadi, lekin bir daqiqa ham charchamaydi. Keyingi kunga kuch to‘plash uchun bola bir qattiq uxlab olsa kifoya” [2]. Uning fikricha, bunday hollarda, bola tabiatining asosiy jihati bo‘lmish serharakatlilikni cheklamaslik, aksincha maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerak bo‘ladi.

Respublikamizda bolalar psixologiyasi masalalari bilan shug‘ullangan M.V.Vohidov ham maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik va serharakatlilik ko‘zga yaqqol tashlanuvchi xususiyatlar ekanligini ta’kidlagan [3]. Haqiqatan ham, odam o‘z tabiatiga ko‘ra yoshlik chog‘ida nihoyatda taqlidchan bo‘ladi. Bolalarning o‘yin faoliyati diqqat bilan kuzatilsa, ushbu faoliyatning kattalar xatti-harakatlari va fe‘l-atvorlariga taqlid qilishdan iborat ekanini ko‘rish mumkin. Aynan shular orqali bolalarda jumladan, loqaydlik, rostgo‘ylik yoki yolg‘on gapirish, mehnatsevarlik yoki dangasalik kabi muayan xususiyatlar, fe‘l-atvorlar, shakllana boradi. Buni Sh. Shodmonova ham shunday ta’kidlaydi: “Inson ilk yoshlik chog‘idan boshlab o‘yin faoliyati orqali tevarak-atrofdagi odamlarning insoniy sifat va fazilatlarini, masalan, mehnatsevarlik, insonparvarlik, sofdillik, halollik, rostgo‘ylik, rahmdillik va bu sifatlarning aksi bo‘lmish ishyoqmaslik, yovuzlik, o‘g‘rilik, vijdotsizlik, berahmlik, yolg‘onchilik va h.k. o‘zlariga singdirib boradilar” [4].

Bola ruhiyatining rivojlanishi masalalari psixologlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, L.S.Vigotskiyning ongning tizimli va ma’noli tuzilishi hamda uning ontogeneza rivojlanishi haqidagi farazi bolaning ruhiy rivojlanishida ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi masalani tadqiq etishga sezilarli hissa qo‘shgan. Uning nuqtai nazarida, psixik taraqqiyot jarayoni ongning ma’noviy tuzilishi o‘zgarishi, ya’ni umumlashtirishlar rivojlanish darajasi bilan shartlangan ongning tizimli tuzilishi qayta qurilishidan iborat. L.S.Vigotskiy fikricha, ongga faqat nutq orqali kirish imkoni mavjud va ongning bir tuzilmasidan boshqasiga o‘tish so‘z (yoki so‘zlar yig‘indisi) ahamiyatining rivojlanishi tufayli amalga oshadi [5].

Lingvopsixologiya lingvistika va psixologiya fanlari kesimida rivojlanayotgan fan bo‘lib, u nutq jarayonining mazmuni, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo‘naltirilganligi, ularning adresant va adresatga ta’sir doirasi kabi masalalarni o‘rganadi. T.Sattarovning fikricha, bunda lisoniy imkoniyatlar sirasida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayonidagi fikrni ifodalash va anglashdagi ruhiy holatlar, shart- sharoit, vaziyat, ta’sirchanlik, so‘zlovchi va tinglovchining ruhiy holati kabilar ham e’tiborga olinadi [6].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan bevosita shug‘ullangan F.R. Qodirova bolani o‘zga tilga o‘rgatishdan avval uning ona tilidagi nutqini rivojlantirish hamda tilga o‘rgatish jarayonini bevosita sensor tuyg‘ular orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Bola so‘zlarga mos keluvchi narsalarni «tadqiq qilishi» tufayli ma’noni anglab, o‘rinli qo‘llaydi. Bola o‘z diqqat-e’tiborini sensomotorikaga tayanib, buyum, narsa, uning masofaviy joylashi, xarakteristikalarini kabilarni so‘z orqali ifodalashga o‘rganib boradi. Kichkintoy ongiga yangi so‘zlar bilan tanishish va ularni mustaxkamlash beshta analizator — ko‘rish, tinglash, hid bilish, ta’m bilish, payqaslash asosida o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganib boradi. Bolalarning yoshiga muvofiq sensomotorikani qo‘llash bilan rejalashtirilgan



Date: 19th May-2026

soʻzlarni narsalar yordamida qabul qilishi, ularning xotirasida ushbu buyumlar, harakatlar haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib qolganidan soʻng, ularning nomini atovchi soʻz bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita toʻqnash kelganida boshdan oʻtkazgan his-tuygʻularni uygʻotadi [7].

Xullas, nutq faoliyatining uygʻonishida eng muhim, ishga soluvchi, asos boʻluvchi va fursati bilan oʻz aksini fikrda topadigan sabab yuzaga chiqadi va ichki nutq yordamida tashqi nutqqa oʻtish jarayoni amalga oshiriladi. Bu kommunikativ faoliyatni amalga oshirish boʻyicha ishni rejalashtirish va tashkil etishda umuman muhim fursat hisoblanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqni egallashi va ularning nutqini oʻstirish jarayonlari bolaning oʻquv faoliyatiga nutqiy tayyorligi masalasi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, koʻpchilik tadqiqotchilarning fikricha, nutq jarayonining shakllanish darajasi muvaffaqiyatli taʼlim omili, atrof-muhitni anglashning asosiy koʻrsatkichi hisoblanadi.

Koʻrinadiki, bolalarning psixik rivojlanishi ularning nutqi orqali namoyon boʻladi, shu bois lingvodidaktik jihatlariga alohida eʼtibor qaratish kerak boʻladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik xususiyati ayniqsa uning nutqi rivojlanishiga katta ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk yoshdanoq avval oila muhitida, keyinchalik bogʻchada elementar ogʻzaki nutqni kattalarga taqlid qilib oʻzlashtira boshlaydilar. Goʻdakka aytilgan alla, erkalatishlar, ovutmachoqlar bola nutqining rivojlanishiga asos boʻladi. Bola tinglagan har qanday ohang uning ruhini koʻtarib, kayfiyatini yaxshilaydi.

Ona tilidagi nutqni egallash va oʻstirish bolaning maktabgacha boʻlgan davrda egallagan eng muhim jihat hisoblanib, bolalarni tarbiyalash va ularga taʼlim berishda asos sifatida koʻriladi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida lugʻat boyligining sezilarli oʻsishi kuzatiladi. Bir qator psixolog, lingvist olimlar bolalarning ikki yoshdan to besh-olti yoshgacha boʻlgan davrda gapirishni deyarli qiynalmay oʻrganib olishlarini taʼkidlab oʻtishgan [8].

Chet tilni oʻrganish insonning umumiy gumanitar rivojlanishining bir qismidir. Chet tilini oʻrgatish bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi, ham mustaqil, ham jamoada ishlash qobiliyatini oʻzlashtiradi, barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Chet tilini oʻrganish bolalarda xotirani, tasavvurni, diqqatni rivojlantiradi; shaxslararo muloqot, boshqarish va oʻzini oʻzi boshqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalarni chet tiliga oʻrgatishning dastlabki bosqichidagi eng samarali usul bu bolada til obrazini yaratishning tabiiy usuli — amaliyotga tatbiq etilgan til tuzilmalarini takroriy tinglash orqali boʻladigan usul.

Borisova L. oʻz tadqiqotlarida shunday fikr bildirgan: “Takroriy tinglash natijasida quyidagilar sodir boʻladi:

- ingliz tilida soʻzlashish asoslarini oʻrgatish;
- tinglash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- bolada ingliz tili tuzilmalarining “intuitiv til qobiliyatlari” deb nomlangan “tasvirni” yaratish;
- maʼlumot olish uchun nutqdan funksional foydalanish koʻnikmalarini



Date: 19th May-2026

shakllantirish;

- ixtiyoriy yodlash va diqqatni rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatini, faolligini va mustaqilligini rivojlantirish;
- mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish” [10].

Soldatenko K.U. o‘z tadqiqotlarida shunday fikr bildirgan: “Bolalar ingliz tilida so‘z va iboralarni o‘rganishda atrofdagi dunyoni anglashga va u bilan o‘zaro munosabatlarga kirishishga intiladi, shuning uchun bolalarga chet tilini o‘rgatishda ularning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur chet tilini o‘rganish oddiydan murakkablashib borishni taqozo etadi” [11].

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining o‘ziga xos xususiyati ular tafakkurining konkretligi, harakatchan, rang-barang narsalarga moyilligidir. Shuning uchun, yosh bolalarni o‘rgatish paytida yorqin va rangli ko‘rinish yaxshi yordamchidir. Agar bola o‘zi ko‘radigan yoki o‘zi bajaradigan ob‘ekt, rasm yoki harakat bilan bevosita bog‘liq bo‘sa, bola chet tildagi so‘zni ancha tez o‘rganadi. Shuning uchun she‘rlar va qo‘shiqlarni o‘rganayotganda siz ularni harakatlar va imo-ishoralar bilan birga qilishingiz kerak. Darsni to‘g‘ri, pedagogik va uslubiy ravishda tashkil etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darsning har bir elementi yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirilishi va amalga oshirilishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos psixofiziologik xususiyatlarini o‘rganib chiqib, aynan quyidagi lingvopsixologik xususiyatlar chet tilni o‘rgatishda alohida ahamiyatga egaligi aniqlandi [9]:

1. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tildagi tovushlarni aniq qabul qilish va talaffuz qilish qobiliyati mavjud. Bolalar har qanday tildagi tovushlarni intonatsiyaga qarab ajrata oladi, lekin bola ulg‘aygan sari bu qobiliyat sustlashib boradi. Bu bolalarga kichik yoshidan til o‘rganish samarali bo‘lishini asoslaydi.

2. Bolalarda taqlidchanlik xususiyati kuchli bo‘ladi. Shu bois, ular atrofdagi nutqiy muloqotni oson o‘zlashtiradilar. Chet tilni o‘rganishda taqlidchanlikdan foydalanish ham samarali kechadi.

3. Bolalardagi har narsaga qiziqish xususiyati kuchli bo‘ladi, masalan, yangi o‘yinchoqlarga, voqealarga, predmetlarga. Turgan gapki, bola qiziqib ko‘rayotgan ushbu yangi narsalarning nomini atagisi, eslab qolgisi keladi. Chet tilni o‘rganishda aynan shu xususiyatdan foydalanish kerak.

4. Bolalar narsalarni o‘z qo‘li bilan ushlab, yalab, yeb ko‘rib, o‘z hissiyotlari bilan bog‘laydilar, kattalar odatda bundan tortinadilar. Shu bois, bola muntazam barcha analizatorlar ishtirokida nutqni tez egallay boshlaydi. Ya‘ni, biror predmetni ikkinchi tilda eslab qolish uchun o‘sha narsaning rangi, mazasi, hajmi va o‘ziga xos xususiyati darhol bola xotirasida namoyon bo‘ladi va bola uni so‘z bilan ifodalaydi. Ushbu lingvopsixologik xususiyatlarni quyidagicha tasvirlash mumkin .

Demak, chet tilini o‘rganish jarayonida xotira, tafakkur, idrok kabi psixologik xususiyatlarning hammasi barobar ishlab, bolaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa bu yoshda xotira kuchli bo‘lganligi sababli, bola hatto ikkinchi tildagi



Date: 19th May-2026

qofiyali she'r, qo'shiqni, harakatli o'yinni yaxshi o'zlashtiradi va uning hissiyotlariga ta'sir etgani tufayli bu xotirasida umrbod saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-4884-son. 2020-yil 6-noyabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 07/20/4884/1484-son.
2. Ushinskiy K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. Tarbiya va ta'lim masalalari. O'zbekiston SSR davlat o'quv-pedagogika nashriyoti 1959,- B.243. -465b.
3. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. — T.: "O'qituvchi", 1982. — 120 b.
4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi., - T.: 2008. - B. 79- 80.
5. Выгодский Л. С. Психология развития как феномен культуры / Под ред. М.Г. Ярошевского. – М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО "МОДЭК", 1996. – 512 с
6. Sattorov.T. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). TDYuI. – T., 2003. – 191 b.
7. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 1997. – B.8. - 185 b.
8. Климентенко А.Д., Миролубов А.А. Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. - М.: Педагогика, 1981. – 456 с.
9. Akbarova Sh.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi. Diss...ped. fan. bo'yicha falsafa. dokt. – T., 2020. - 202 b.
10. Борисова Л.Н., Лашина Н.А. Обучение иноязычному говорению на основе песенного материала // Лингводидактические проблемы обучения иностранным языкам: Межвузовский сборник научных статей./ Под ред. Л.Н. Борисовой. Вып. 2. — Белгород, 2003. — С. 27.
11. Солдотенко К.Ю Творческий подход к организациии работы педагогов с семьей в процессе обучения старших дошкольников английскому языку. //Искусство и образование. 2018 г., с.148-153.

